



**HARBIY XIZMATCHILARDA EKSTREMAL SHAROITLARDA
PSIXOLOGIK BARQARORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK
ASOSLARI**

Mamatxanov Nodirxon Sadriddin o'g'li
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya: Mazkur maqolada harbiy xizmatchi komandirlarning hozirgi o'zgarishlar davrida jamoat joylarida mustaqil tarzda xizmat vazifalarini olib borish davomida xizmatni tashkil etishdagi xizmat va shaxsiy muammolari sababli shaxsiy tarkibning xizmat olib borishida yuzaga kelayotgan muammosi statistik jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqod davomida komandirlarning mavjud muammolarni chetlab o'tishi, yuzaga keladigan stresslarga bardoshliligi, o'zini o'zi boshqarishi, vaziyatni tez va aniq baholab samarali qaror qabul qilish bilan bog'liq ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi o'rganildi. Olingan statistik natijalar komandirlarning xizmat boshlashidan oldin o'tkaziladigan psixologik tayyorgarlik darajisidan o'tishi ularning xizmatni tashkil etishi va qo'yilgan vazifalarni samarali bajarishiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari xizmat oldi yo'riqnomalarida maxsus psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish, stressli vaziyatlarda xissiyotga berilmaslik va xizmat samaradorligini mustahkamlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. xizmat va shaxsiy muammolar, stressli vaziyatlar, stressga bardoshlilik, hissiyotga berilmaslik, psixologik bosim.

Kirish.

Xalqimizning erkin va farovon, qudratli Yangi O'zbekistonni barpo etish bo'yicha xohish-irodasini ro'yobga chiqarish, har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish va erkin harakatlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, adolat, qonun ustuvorligi, xavfsizlik va barqarorlikni kafolatli ta'minlash maqsadida olib borilayotgan islohatlar o'z samarasini bugungi kunda berayotganini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiya tizimini yangicha isloh etish borasida ham bir qator tizimli ishlar olib borilmoqda. Jumladan Milliy gvardiyani jamoat tartibini saqlash, shu jumladan ommaviy tadbirlar, mitinglar, yig'ilishlar, namoyishlar o'tkazilayotganda hamda fuqarolar gavjum bo'ladigan joylarda jamoat tartibini saqlash, favqulodda holat, alohida davr va terrorchilikka qarshi operatsiyalarni o'tkazish sharoitlarida huquqiy rejimni



ta'minlashda asosiy sub'ektlaridan biriga aylantirdi.

Hozirgi davrida mamalakatimizda o'tkazilayotgan ommaviy tadbirlar, shuningdek ko'cha va jamoat joylarida Milliy gvardiya o'z faoliyatini qonuniylik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish hamda ularni hurmat qilish, yagonalik, mustaqillikdan iboratligi buning yaqqol isbotidir.

Milliy gvardiya harbiy xizmatchilari yani komandirlar o'z fuqnsional vazifalarini bajarish bilan bir qatorda ko'cha va jamoat joylarida o'tkaziladigan ommaviy tadbirlar, uchrashuvlar, xalq sayillari va yana ko'plab tadbirlarni o'tkazishda jamiyatimizning turli xil qatlamlarida faoliyat olib boradigan fuqarolar bilan muomalaga kirishadi. Bu esa o'z navbatida komandirlarda kuchli bosiqlik, mustahkam bilim va tajriba talab etadi. Chunki amaldagi qonunchiligimizga kiritilgan yangi o'zgarishlar Milliy gvardiya harbiy xizmatchilarini bevosita jamiyatda yurish turish qoidalarini buzganligi hamda boshqa huquqbuzarliklar bo'yicha qonun doirasida ma'muriy huquqbuzarliklar uchun jarima protokollar tuzish imkoniyatini berdi.

Bunday imkoniyatlardan fuqarolar bilan olib boriladigan ziddiyatli munosabada oqilona va adolatli foydalanishda harbiy xizmatchi va komandirlarning xissiy xayojonga berilishi yoki mavjud muammolari sababli noqonuniy ishlarni bajarishi yoki shaxsiy manfaati yo'lida foydalanishi mumkinligini isbotlab bermoqda.

Halqaro va mahallaiy maydonda olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni isbotlab berdiki, muammolar natijasida stressda bo'lganlar o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda noaniqlikka bazan yomon oqibatlarga olib kelishini bilsada o'z maqsadlari yo'lida qaytmasliklarini isbotlab berishmoqda. Zamonaviy harbiy psixologiyada har qanday stresslarga bardosh berish, xizmat majburiyatini oldiga maqsad qilib qo'yishi uchun muntazam ravishda rivojlantirilishi mumkin bo'lgan dinamik tizim sifatida qaraladi.

Muammoning dolzarbligi shundaki, muammolar natijasida stress vaqtida noto'g'ri qaror qabul qilish nafaqat xizmat natijasiga, balki inson hayotiga ham tahdid solishi mumkinligi halqaro va yurtimizda ko'plab misollar bilan isbotlab berildi. Shu bois Milliy gvardiya bo'linmalari tizimida psixologik tayyorgarlik tizimi darajasini chuqur o'rganish va uni oshirish bo'yicha mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi va komandirlarning psixikasi muammoli vaziyatlarda va stress holatida bo'lgan vaqtlarda ularning to'g'ri qaror qabul qilishini va psixologik barqarorligini baholash va stressbardoshlikni oshirish omillarini aniqlashdan iborat.

Psixologik barqarorlik tushunchasini nazariy jihatdan tahlil qilish Milliy gvardiya xodimlarining psixikasi va stress darajasini aniqlash, qaror qabul



qilish jarayoni bilan stress o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni o'z oldiga vazifa etib belgiladi. Hozirgi talablar asosida tashkil etilayotgan harbiy xizmat kutilmagan ba'zan yuqori xavf va mammoli sharoitida amalga oshirilmoqda. Milliy gvardiya bo'linmalari favqulodda vaziyatlarda faoliyat yuritadi. Psixologik barqarorlik xizmat samaradorligida muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Inson faoliyati motiv, maqsad, harakat va natija deb olinsa, harbiy xizmat faoliyatida buyruq, maqsad, amal va natija asosida komandir faoliyatini aynan shu zanjirga asoslanishi bo'yicha bir qator tadqiqotlar mavjud.

Ekstrimal muammoli vaziyatlarda A. G. Maklakov harbiy psixologiya va rahbar psixologiyasi bo'yicha fundamental asoslari asarida "harbiy va rahbar psixologiyasi uchun nazariy baza bo'lib xizmat qiladi. Undagi psixika, faoliyat, shaxs va stressga oid qonuniyatlar harbiy komandirlarning xizmat faoliyatini ilmiy asosda tushuntirish va tahlil qilish imkonini beradi" [1].

Harbiy xizmatchi va komandirlar o'z xizmat faoliyati davomida berilgan topshiriqlarni bajarishi davomida o'z-o'zini hatti xarakatlarini tahlil qilish bilan o'z muammolarini hal etishga kirishishi, duch kelgan qiyinchilik va maummolarni yengib o'tishi kerakligini aniqlab olishi lozim.

V. A. Bodrov o'z faoliyatida ayrim kasblar (harbiy, huquq-tartibot) yuqori xavf va stress bilan bog'liqligini va bu sohalarida psixologik tanlov muhim ro'l o'ynashini ta'kidlab o'tdi. V. A. Bodrov nazariyasiga ko'ra harbiy xizmatchi va komandirning ish samaradorligi uning professional va psixologik barqarorligi hamda stressga bardosh bera olish va tez qaror qabul qilishiga bog'liqligini isbotlab berib, psixologik tanlov va tayyorgarlik bu asosiy omil, ekstremal sharoitda ishlash qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga egadur [2].

Nazariya hozirgi kunda o'z isbotini berayotganini ko'rishimiz mumkin, ko'cha va jamoat joylarida shuningdek, ommaviy tadbirlarda harbiy xizmatchilar turli fuqarolar bilan muloqotga kirishadi, qarama-qarshi jins vakillari, yoshga doir turli yoshdagilar, har xil millat vakillari va boshqalar bilan. Muloqot jarayonida ayrim insonlar o'zi bilib yoki bilmay harbiy xizmatchilarni qaysidur ma'noda stress holatidagidan foydalanishi mumkin. Aynan shu holatda harbiy xizmatchi komandir tomonidan qilinadigan qarorlar inson kelajagi uchun ba'zan xavfli bo'lishi ham mumkin.

Yu.P. Platonovning asarida boshqaruv jarayoni psixologik nuqtai nazardan kompleks tahlil qilinadi. Muallif rahbar faoliyatini shaxslararo munosabatlar, ta'sir mexanizmlari va qaror qabul qilish jarayonlari orqali izohlaydi. Asarda rahbarning psixologik ta'sir usullari — ishontirish, rag'batlantirish, nazorat va muloqot madaniyati asosiy vosita sifatida ko'rsatiladi. Platonov rahbar samaradorligini uning emotsional intellekt darajasi, liderlik uslubi va jamoa



bilan o‘zaro munosabatiga bog‘laydi [3].

Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda turli boshqaruv uslublarining (avtoritar, demokratik, liberal) jamoa samaradorligiga ta’siri eksperimental tarzda o‘rganilgan. Natijalarga ko‘ra, demokratik uslub eng yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Shuningdek, u stress sharoitida rahbarning psixologik barqarorligi va tez qaror qabul qilish qobiliyati hal qiluvchi omil ekanligini asoslaydi. Asarda rahbarlar uchun amaliy takliflar — samarali muloqotni rivojlantirish, konfliktlarni boshqarish va psixologik tayyorgarlikni kuchaytirish kabi yo‘nalishlar berilgani buning isboti bo‘la oladi.

Bundan tashqari shaxsning nafaqat shaxsiy ijtimoiy muammolari balki biologik muammolari xam xizmat faoliyatida muhim ro‘l o‘ynashi mumkin. Bu borada B.G. Ananov insonni kompleks ilmiy o‘rgani natijasida, insonni bir vaqtning o‘zida biologik, psixologik va ijtimoiy tizim sifatida tahlil qilib, insonni bilishda integrativ yondashuvni taklif etagan, ya’ni turli fanlar (*psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya*) o‘zaro bog‘liq holda qo‘llanilishi kerakligini asoslagan. O‘zining asarda shaxs, faoliyat va ong birligi markaziy o‘rin egallashini yoritib bergan.

B.G. Ananov o‘z tadqiqotlarida inson rivojlanishining yoshga oid xususiyatlarini, kognitiv jarayonlar (*tafakkur, xotira, diqqat*) dinamikasini eksperimental kuzatishlar va uzoq muddatli (*longitudinal*) tadqiqotlar orqali o‘rgangan. Natijada u inson imkoniyatlari va qobiliyatlari faoliyat jarayonida shakllanishini ilmiy asoslab bergan. Muallifning asosiy taklifi — insonni faol sub’ekt sifatida o‘rganish va uning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va boshqaruv tizimini takomillashtirishdir. Bu yondashuv komandir psixologiyasi uchun mustahkam nazariy baza yaratadi [4].

Komandirlarni stressli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, ularni xar qanday vaziyatlarda o‘zini boshqar olishi uchun yakka tartibda bosqichma-bosqich mashg‘ulotlar modullarini yaratib tizimli tartibda o‘tkazish maqsada muvofiq ekanligini tadqiqotlarda isbotlab berishgan.

Jumladan, K.K. Platonov o‘z asarida shaxs psixologiyasi tizimli va ierarxik yondashuv asosida tahlil qilgan. Muallif shaxsni to‘rt asosiy qavatdan iborat tuzilma sifatida tavsiflaydi: biologik shartlangan xususiyatlar (*temperament*), individual tajriba, psixik jarayonlar va ijtimoiy yo‘nalganlik (*qadriyatlar, motivatsiya*). Bu model shaxs rivojlanishini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

K.K. Platonov o‘z tadqiqotlarida kuzatish, eksperiment va faoliyat tahlili usullaridan foydalanib, shaxs sifatleri faoliyat jarayonida bosqichma-bosqich shakllanishini asoslab bergan. U ayniqsa kasbiy faoliyatda shaxs tuzilmasining roliga alohida e’tibor qaratgan. Muallifning asosiy taklifi — shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishda uning barcha tuzilma elementlarini kompleks hisobga



olishdir. Bu yondashuv harbiy rahbar shaxsini shakllantirishda, uning psixologik barqarorligi va liderlik sifatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega [5].

V.F. Petrovskiyning “Voennaya psixologiya” asari harbiy faoliyatning psixologik qonuniyatlarini tizimli ravishda tahlil qiladi. Muallif harbiy xizmatni ekstremal sharoitda amalga oshiriladigan faoliyat sifatida baholab, unda psixik jarayonlar, shaxs xususiyatlari va jamoaviy munosabatlarning o‘zaro bog‘liqligini ochib beradi. Asarda komandir va harbiy xizmatchining ruhiy holati, stressga chidamliligi, intizom va motivatsiya masalalari markaziy o‘rin tutadi.

V.F. Petrovskiy tadqiqotlarida harbiy jamoalardagi psixologik muhit, liderlik va buyruq bajarish jarayonlari kuzatish va eksperimental usullar orqali o‘rganilgan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, jamoada ijobiy psixologik muhit va komandirning adolatli munosabati xizmat samaradorligini oshiradi. Muallifning asosiy taklifi — harbiy xizmatchilarni psixologik tayyorlashni kuchaytirish, stress holatlariga moslashuvni rivojlantirish va komandirlarda samarali boshqaruv ko‘nikmalarini shakllantirishdir. Bu yondashuv harbiy faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega [6].

V.I. Lebedevning “Личност в экстремальных условиях” asari inson psixikasining ekstremal sharoitlardagi o‘zgarishlarini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Muallif ekstremal holatlarni yuqori xavf, noaniqlik va kuchli stress bilan bog‘liq muhit sifatida tavsiflab, bunday vaziyatlarda shaxsning psixik barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini asoslaydi. Asarda emotsional zo‘riqish, qo‘rquv, dezadaptatsiya va qaror qabul qilish jarayonlaridagi o‘zgarishlar chuqur o‘rganilgan.

V.I. Lebedev tadqiqotlarida kosmonavtlar, uchuvchilar va harbiy xizmatchilar ishtirokida o‘tkazilgan eksperimentlar orqali insonning izolyatsiya, xavf va vaqt bosimidagi xulqi tahlil qilingan. Natijalar stressga bardoshlilik va o‘zini boshqarish qobiliyati yuqori bo‘lgan shaxslar ekstremal sharoitda samarali faoliyat yuritishini ko‘rsatgan. Muallifning asosiy taklifi — maxsus psixologik tayyorgarlik, stressga moslashuv treninglari va emotsional barqarorlikni rivojlantirish orqali professional samaradorlikni oshirishdir. Bu yondashuv harbiy komandirlar tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi [7].

A.D. Glotchkinning “Psixologiya voinskogo kollektiva” asarida harbiy jamoaning shakllanishi va faoliyatining psixologik qonuniyatlarini tahlil qilgan. Harbiy jamoani qat’iy intizom, umumiy maqsad va ierarxik munosabatlarga asoslangan ijtimoiy guruh sifatida tavsiflagan. Asarda jamoadagi psixologik muhit, o‘zaro ishonch, liderlik va guruh birligi xizmat samaradorligini belgilaydigan asosiy omillar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

A.D. Glotchkin olib borgan tadqiqotlarida harbiy bo‘linmalarda kuzatish



va eksperiment usullari orqali jamoaviy munosabatlar, komandirning ta'siri va intizom darajasi o'rgangan. Natijalar shuni ko'rsatganki, ijobiy psixologik muhit va adolatli rahbarlik jamoada birlikni kuchaytiradi va vazifalarni samarali bajarishga olib keladi. Uning asosiy taklifi — jamoani psixologik jihatdan shakllantirish, o'zaro ishonchni mustahkamlash va komandirlarning liderlik ko'nikmalarini rivojlantirishdir. Bu yondashuv xam harbiy jamoaning oldiga qo'yilgan vazifalarni kutilgan natijalarga olib borishi yani xizmat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga egadir [8].

O'tkazilgan statistik ma'lumot va tadqiqodlar shuni ko'rsatib berdiki, shaxsiy individual psixologik tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan harbiy xizmatchi komandirlar har qanday holatda o'zi va harbiy jamoasi oldiga qo'yilgan vazifalarni shaxsan va jamoa ishtirokida yuqori natijalarga olib chiqib to'g'ri qarorlar qabul qilishini isbotlab berilgan. Bundan ko'rinib turtipti-ki Milliy gvardiya bo'linmalarida shaxsiy va jamoaviy psixologik treninglarni hozirgi zamoat talabidan kelib chiqqan holda kuchaytirish, yangicha tus berish va xizmat oldi yo'riqnomalarda turli xil ko'rinishlarda muntazam o'tkazilib borilishi zarurligini isbotlaydi.

Xulosa.

Nazariy va amaliy ma'lumotlarni umumlashtiradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash mumkinki, Milliy gvardiya bo'linmalarida xizmat olib borish faoliyati aniq mas'uliyat, tezkorlik, jamoat joylaridagi turli kutilmagan vaziyatlar va doimiy psixologik bosim bilan xizmat olib borishi bilan tavsiflanadi. Bunday vaziyatlarda komandir va shaxsiy tarkib psixikasiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida stress, emotsional zo'riqish, xavfni his qilish va vaqt bosimini olishimiz mumkinligi namoyon bo'ladi. Ushbu omillar, avvalo, harbiy xizmatchi komandirlarning diqqatini pasaytirishi, vaziyatni baholashda xatolarga olib kelishi va qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkinligi isbotlandi. Shu bilan birga, stressga bardoshlilik va psixologik tayyorgarlik darajasi yuqori bo'lgan xizmatchilarda aksincha, tez va aniq qaror qabul qilish, vaziyatni to'g'ri baholash hamda xizmat vazifalarini samarali bajarish kuzatiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik tayyorgarlik, o'zini boshqarish va emotsional nazorat ko'nikmalari xizmat samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, komandir shaxsiy namuna orqali jamoada psixologik muhitni shakllantirib, stress ta'sirini kamaytirishda hal qiluvchi rol o'ynashi ma'lum bo'ldi. Demak, xizmat samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri psixologik barqarorlik, liderlik qobiliyati va tezkor qaror qabul qilish ko'nikmalari bilan bog'liq.

Tavsiyalar.

Jamoat joylari va ko'cha sharoitida xizmat olib boruvchi Milliy gvardiya



bo'linmalari faoliyatini takomillashtirish maqsadida quyidagi yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Xizmat oldi tayyorgarlik jarayoniga qisqa, lekin samarali psixologik mashqlarni kiritish zarur. Bu mashqlar xizmatchilarning diqqatini jamlash, stressni nazorat qilish va vaziyatni tez baholash qobiliyatini oshiradi. Jamoat joylarida yuzaga keladigan noaniq va keskin vaziyatlarni modellashtiruvchi ssenariy asosidagi treninglarni muntazam o'tkazish lozim. Bu xizmatchilarni real vaziyatlarga psixologik jihatdan tayyorlaydi. Komandirlarda samarali muloqot, ta'sir ko'rsatish va konfliktlarni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus dasturlarni joriy etish zarur. Xizmat jarayonida psixologik monitoringni yo'lga qo'yish va stress belgilari aniqlangan xizmatchilarga tezkor psixologik yordam ko'rsatish tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yondashuvlar Milliy gvardiya bo'linmalarida xizmat samaradorligini oshirish, jamoat xavfsizligini ta'minlash va xizmatchilarning psixologik barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Maklakov A.G. Общая психология. – М.: Питер, 2001. – 15–35-с.
2. Бодров В.А. Психология профессиональной пригодности / В.А. Бодров. – Москва: ПЕР СЕ, 2001. – 511 с.
3. Платонов Ю.П. Психология управления / Ю.П. Платонов. – Санкт-Петербург: Питер, 2006. – 512 с.
4. Ананев Б.Г. Человек как предмет познания / Б.Г. Ананев. – Санкт-Петербург: Питер, 2001. – 288 с. (asl nashr: 1968 yil, ilmiy ishlarda 2001 nashri ko'p qo'llanildi)
5. Платонов К.К. Структура и развитие личности / К.К. Платонов. – Москва: Наука, 1986. – 256 с.
6. Петровский В.Ф. Военная психология / В.Ф. Петровский. – Москва: Воениздат, 1972. – 320 с.
7. Лебедев В.И. Личност в экстремальных условиях / В.И. Лебедев. – Москва: Политиздат, 1989. – 304 с.
8. Глоточкин А.Д. Психология воинского коллектива / А.Д. Глоточкин. – Москва: Воениздат, 1985. – 240 с.